
BESH TASHABBUS OLIMPIADASI YOSHLARNI FAOLLIKKA UNDAMOQDA

Toshloq tumanida yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish hamda ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida mahalla yoshlari ishtirokidagi "Besh tashabbus olimpiadasi"ning ikkinchi mavsumi bo'lib o'tmoqda.

Bugun "Besh tashabbus olimpiadasi" doirasida "Milliy va zamonaviy cholg'u ijrochiligi" bo'yicha ko'rik-tanlovning tuman bosqichi bo'lib o'tdi.

Tanlovda san'at sohasiga qiziquvchan, sektor bosqichlarida g'oliblikni qo'lga kiritgan yoshlar o'zaro bellashdilar. Tanlov uch yosh toifasida (10-15 yosh, 16-22 yosh, 22-30 yosh) murosasiz bahs ko'rinishida, ko'tarinki ruhda o'tkazildi.

G'oliblar tanlovning viloyat bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritdilar.

2023-10-18 17:57:31